

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

SHODMANOVA MOXIRA FURKATOVNA

**MEROSNI EGALLASHNI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA
SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the abstract of doctoral dissertation

Оглавление автореферата докторской диссертации

Shodmanova Moxira Furkatovna

Merosni egallashni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish.....3

Шодманова Мохира Фуркатовна

Совершенствование гражданско-правового регулирования приобретения наследства.....20

Shodmanova Moxhira Furkatovna

Improvement of civil-legal regulation of acquisition of inheritance.....38

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....42

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

SHODMANOVA MOXIRA FURKATOVNA

**MEROSNI EGALLASHNI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA
SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Yu1059 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “ZiyoNET” axborot-ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Imomov Nurillo Fayzullayevich yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Musaev Bekzod Tursunboevich yuridik fanlar doktori (DSc), professor Ergashev Vositjon Yoqubovich yuridik fanlar nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil __-yanvar soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (998971) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 13. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil __-yanvar kuni tarqatildi.
(2025-yil __-yanvardagi __-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.R. Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Y. Xabibullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

B.K. Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda fuqarolarning meros huquqini to'sqinliksiz amalga oshirishlarini ta'minlash inson huquqlari va erkinliklarning ajralmas kafolatlaridan biri sanaladi. Meros mol-mulkini egallash institut orqali esa merosxo'rlar, kreditorlar va boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini ta'minlanadi. Misol sifatida jahondagi yirik meros mol-mulki qo'lga kiritganlar beshligini keltirib o'tish mumkin: birinchi-ikkinchi o'rin "Koch Industries" kompaniyasini o'z otasidan meros qilib olgan Charlz Kox va uning ukasining bevasi Juliya Koxga tegishli (59,6 mlrd \$), uchinchi o'rin Walmart chakana savdo tarmog'ining 13% ga esa Jim Uolton (58,3 mlrd \$), to'rtinchi-beshinchi o'rinlar esa, uning singlisi Elis Uolton (57,5 mlrd. \$) va ukasi Rob Uoltonga (57,2 mlrd\$) tegishlidir¹. Meros mol-mulki qiymatining bunchalik yuqori ekanligi meros mol-mulkini egallashning huquqiy tartibotini aniq, har tomonlama inobatga olgan holda belgilash, bunda merosxo'rlar va kreditor o'rtasidagi nizolarning oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar va vositalarni nazarda tutishga alohida e'tibor qaratiladi. Zero, meros ilmiy islom huquqida ham eng murakkab va sharaflilik sifatida e'tirof etiladi². Aynan meros va uni egallashga oid qoidalarining aniq va adolatli belgilanishi esa qarindoshlar o'rtasidagi aloqalarning uzoq va barqaror davom etishiga muhim hissa qo'shishi mumkin. Bunda esa yurisprudensiya meros munosabatlarining barcha ishtirokchilari uchun maqbul va har tomonlama oqilona nisbatini belgilash lozim bo'ladi.

Jahonda merosni egallashga nisbatan turli xildagi yondashuvlar va tizimlar amal qiladi. Masalan, qit'a huquqi mamlakatlarida merosni egallashga nisbatan asosan ikki xil tizim: merosdan voz kechish va merosni qabul qilish amal qiladi. Roman huquq oilasi mamlakatlarida (shu jumladan, O'zbekistonda ham) merosdan voz kechish tizimi amal qilsa, olmon huquq oilasida merosni qabul qilish tizimi qo'llaniladi. Anglo-sakson mamlakatlarida merosni egallash asosan meros boshqaruvchisi tomonidan amalga oshiriladi. Shu bilan birga anglosakson va islom huquqida qit'a huquq tizimidan farqli ravishda meros hisobidan meros qoldiruvchining qarzlari to'liq qoplanganidan keyin meros mol-mulki merosxo'rlarga beriladi. Mazkur holatlardan kelib chiqib, bugungi kunda merosni egallashga nisbatan qonunchilikni shakllantirishning aniq yo'nalishlarini belgilab olish, merosni taqsimlashda vasiyatnoma bo'yicha va qonun bo'yicha vorislar hamda majburiy ulush olish huquqiga ega bo'lgan merosxo'rlarning huquqlarini ta'minlash dolzarbdir. Shu sababli dunyoda merosni egallashda merosxo'rlarning faol harakatlariga asoslangan tizimni yaratish, meros mulkning xo'jasizlarcha qolib ketishining oldini olishning huquqiy tartibotini yaratishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda merosni egallashning qonunchilik tizimi yaratilgan. Bunda qonunchilik merosxo'rlar faol harakatlariga emas, balki merosdan voz kechish tizimiga asoslangan va bu borada asosiy qoidalar amal qiladi. Shunga qaramasdan merosni egallashga nisbatan qabul qilish tizimini ishlab chiqish, merosxo'rlar

¹ Миллиарды по наследству. Рейтинг: кто получил состояние от родственников // <https://bcs-express.ru/novosti-i-analitika/milliardy-po-nasledstvu-reiting-kto-poluchil-sostoianie-ot-rodstvennikov>

² Исломда мерос ва унинг тақсимоти. – Тошкент: 2015. – 4 б. // www.madrasa.uz

o'rtasida merosni taqsimlash bo'yicha kelishuv mexanizmining aniq huquqiy qoidalarini belgilash zarurati mavjud. Bundan tashqari, merosni egallash voyaga yetmaganlar, muomalaga layoqatsizlarning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish, meros shartnomasini joriy etish talab etiladi. Shuningdek bugungi kunda hozir bo'lmagan merosxo'rlarning huquqlarini himoya qilish barobari, ular tomonidan o'z huquqlarini suiiste'mol qilinish hollarini bartaraf etadigan hamda qolgan merosxo'rlarning manfaatlarini ta'minlaydigan aniq tartibot mavjud emasligi dolzarb tusga ega. Merosni egallash mavzusini tadqiq etishning dolzarb yo'nalishlaridan yana biri bu raqamli huquqlar, ijtimoiy tarmoqdagi akkauntlar, kriptovalyutaga nisbatan vorislik muammosini hal qilish, egasiz qolgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqini belgilashda kreditor manfaatlarini ta'minlash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), Iqtisodiy protsessual kodeksi (2018), Fuqarolik protsessual kodeksi (2018), "Notariat to'g'risida"gi (1996), "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdor huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (2012), "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi (2014), "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi (2022) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni (2022) va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Meros egalash vorislik huquqining o'ziga xos instituti sifatida mamlakatimiz huquqshunos olimlar tomonidan u yoki bu darajada ilmiy tadqiqot ishlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarning muayyan qismi sifatida yoritilgan. Xususan, H.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, O.Oqyulov, D.M.Karaxodjayeva, N.Imomovlar tomonidan fuqarolik huquqining umumiy masalalari, fuqarolik huquqiy muomalaga oid munosabatlar o'rganilishi barobarida vorislikka oid qoidalar ko'rib chiqilgan. B.R.Topildiyev meros mol-mulkini ishonchli boshqarishga oid tadqiqotlar o'tkazgan. R.Muxammedov, J.I.Yuldashevlar tomonidan merosni egallash vorislik huquqiga bag'ishlangan o'quv qo'llan va darslik doirasida yoritilgan.

Vorislik huquqining vujudga kelishi T.A.Ayubov tomonidan o'rganilgan bo'lsa, F.Kurganova qonun bo'yicha vorislik muammolarini tadqiq qilishda merosni egallashga e'tibor qaratgan. Merosni egallashni o'zining vorislik huquqi bo'yicha yirik monografik tadqiqoti doirasi Z.Sh.Shamuxammedova tadqiq qilgan.

MDH mamlakatlari merosni egallash bo'yicha tadqiqotlar Rossiyalik: O.Ye.Blinkov, R.A.Barkov, G.S.Limanskiy, L.I.Popova, Ye.S.Putilina, T.A.Bryuchko, T.S.Korobeynikova, A.Ye.Kazanseva; Ukrainalik: Yu.A.Zaiko, O.Ye.Kuxarev, O.O.Karmaza, I.Ya.Fedorich; Qirg'izistonlik: N.P.Prigoda, Ozarbayjonlik: N.F. Gasanov va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan: M.J.Waal, M.Kantakuzino, I.Kroppenberg, Chr.Vendehorst, M.Brattstrom, K.L.Chen, K.Y.Lin, N.S.Bessarab, A.Berlee, R.Vukovich, I.Kankeljak, K.A.Kolk, M.O.Krespolar tomonidan merosni egallash masalalari u yoki bu darajada tadqiq etilgan.

Biroq O'zbekiston fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan merosni egallash instutining mohiyati, O'zbekistonda merosni egallash bo'yicha amal qiladigan tizimlar, merosni qabul qilish tartiboti va meros shartnomasi kabi masalalar alohida tadqiq etilmaganligi yana bir bor ushbu mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Merosni egallashni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish" (2023-2025) ilmiy izlanishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi merosni egallashni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bilan bog'liq nazariy qarashlar, yondashuvlar, doktrinalar, huquqni qo'llash amaliyoti tajribasi hamda qonunchilikning rivojlanish yo'nalishlarini tahlil etib, fuqarolik huquqi fani, amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

merosni egallashning fuqarolik-huquqiy tartibga solish asoslarining ilmiy-amaliy tavsifini amalga oshirish;

merosni egallashning huquqiy oqibatlarini ilmiy-amaliy tahlilini o'tkazish;

merosni egallashni fuqarolik-huquqiy tartibga solish qonunchilik asoslarining rivojlanish genezisi va uning istiqboli bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;

merosga bo'lgan huquq va merosdan voz kechishning huquqiy tartibotiga oid ilmiy-amaliyo yondashuvlarni o'rganish;

merosni muhofaza qilish va hozir bo'lmagan merosxo'rlarining huquqlarini ta'minlash masalalarining yechimlari topish;

merosni egallash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasining qiyosiy-huquqiy tahlili bo'yicha milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha xulosalarni shakllantirish;

raqamli huquqlarga nisbatan merosni egallashning ilmiy-nazariy muammolarini o'rganish va tegishli tavsiyalarni yaratish;

meros ulushlarining ortishi va meros hisobidan qiladigan xarajatlar (kreditorlarning meros qoldiruvchining qarzlarini undirib olishi) bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlarini ilgari surish.

Tadqiqotning obykti merosni egallashni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini merosni egallashga doir qonunchilik normalari hamda ilmiy-nazariy jihatlar va ushbu sohadagi huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-nazariy tahlil, qonunchilikning rivojlanish genezislarini aniqlash, qiyosiy-huquqiy tahlil qilish usuli, normativ-huquqiy va amaliy tahlil usuli, umumlashtirish, mantiqiylik, huquqni qo'llash va sud amaliyotini tahlil qilish kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

meros guvohnomani rasmiylashtirishda meros mol-mulki taqiqlanmaganligi va (yoki) xatlanmaganligi Tizim orqali tekshirilishi zarurligi asoslantirilgan;

tekshirish natijasi bo'yicha olingan mulkni boshqa shaxsga o'tkazish taqiqlanmaganligi yoki xatlanmaganligi haqidagi ma'lumotnoma Tizimda saqlanishi kerakligi asoslangan;

meros mol-mulkiga nisbatan taqiq va xatlov qo'yilgan bo'lsa, taqiq va xatlov olib tashlanmagunga qadar guvohnomani berish to'xtatib turilishi notariusning majburiyati ekanligi asoslatrilgan;

garov (ipoteka) shartnomasi asosida meros mol-mulkiga taqiq qo'yilgan bo'lsa, garovga oluvchining roziligi bilan taqiq bekor qilinmagan holda merosxo'rlarga guvohnoma berilishi mumkinligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

merosni egallashda voz kechish tizimi o'rniga merosni qabul qilish tizimiga o'tish lozimligi, bu o'z navbatida merosxo'rlardan faol harakat qilishni talab etishi asoslab berilgan;

merosni taqsimlashda va undan voz kechishda voyaga yetmaganlar, muomalaga layoqatsizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlashda vasiylik va homiylik organlarining ishtiroki va roziligiga oid qoidalarni Fuqarolik kodeksiga kiritishi zarurligi asoslantirilgan;

merosni taqsimlashda hozir bo'lmagan merosxo'rlarning huquqlarini himoya qilish bilan birga, ularning suiiste'molliklariga yo'l qo'yimaslik maqsadida tegishli tartibotini belgilash lozim ekanligi asoslangan;

merosni egallash meros shartnomasi va uni qo'llash, meros shartnomasining mazmuniga oid qoidalari Fuqarolik kodeksiga kiritilishi asoslab berilgan;

meros qoldiruvchining kreditorlari oldida merosxo'rlarning javobgarligi doirasida belgilash, solidar javobgarlik tizimini yanada aniqlashtirish va bunda kreditorlarni xabardor qilish tizimini joriy etish lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyotida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalar bo'yicha statistik ma'lumotlar umumlashtirilib, olingan natijalar vakolatli davlat hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, ushbu dissertatsiya ishining merosni egallashning ilmiy-nazariy tahlili, meros taqsimoti, merosdan voz kechish va uning cheklanishi, hozir bo'lmagan merosxo'rlarning huquqlarini himoya qilish, meros ulushining ortishi to'g'risidagi mavjud ilmiy tasavvurlarga qo'shgan hissasi hisoblanadi.

Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishning natijalari, undagi qoidalar va xulosalardan merosni egallash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishni takomillashtirishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

notarius meros guvohnomasini berishda meros mol-mulki taqiqlanmaganligi yoki xatlanmaganligini tizim orqali tekshirishga oid taklifidan O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-dekabrda 654-son qaroriga ilova “Vazirlar Mahkamasining “Notariuslar tomonidan ayrim notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi ma‘muriy reglamentlarni tasdiqlash haqida” 2020-yil 18-noyabrda 726-son qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar”ning 5-bandi tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot tahlili va yuridik ta‘minlash departamentining 2024-yil 6-sentabrda 12-15-61-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif notariuslar tomonidan meros mol-mulkinging taqiqlanmaganligi yoki xatlanmaganligini ishonchli aniqlash imkonini bergan;

tekshirish natijasi bo‘yicha olingan mulkni boshqa shaxsga o‘tkazish taqiqlanmaganligi yoki xatlanmaganligi haqidagi ma‘lumotnoma Tizimda saqlanishi haqidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-dekabrda 654-son qaroriga ilova “Vazirlar Mahkamasining “Notariuslar tomonidan ayrim notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi ma‘muriy reglamentlarni tasdiqlash haqida” 2020-yil 18-noyabrda 726-son qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar”ning 5-bandi tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot tahlili va yuridik ta‘minlash departamentining 2024-yil 6-sentabrda 12-15-61-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif meros mol-mulki taqiqlanmaganligi yoki xatlanmaganligi haqida ma‘lumotlarni ishonchli saqlanishini ta‘minlashga xizmat qilgan;

notarius tomonidan, agar meros mol-mulkiga nisbatan taqiq va xatlov qo‘yilgan bo‘lsa, taqiq va xatlov olib tashlanmagunga qadar guvohnomani berish to‘xtatib turilishi to‘g‘risidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-dekabrda 654-son qaroriga ilova “Vazirlar Mahkamasining “Notariuslar tomonidan ayrim notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi ma‘muriy reglamentlarni tasdiqlash haqida” 2020-yil 18-noyabrda 726-son qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar”ning 5-bandi tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot tahlili va yuridik ta‘minlash departamentining 2024-yil 6-sentabrda 12-15-61-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif meros guvohnomasi berish bo‘yicha notariuslarning tushuntirish berish majburiyati doirasini aniqlashtirgan;

garov (ipoteka) shartnomasi asosida meros mol-mulkiga taqiq qo‘yilgan bo‘lsa, garovga oluvchining roziligi bilan taqiq bekor qilinmagan holda merosxo‘rlarga guvohnoma berilishi mumkinligiga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-dekabrda 654-son qaroriga ilova “Vazirlar Mahkamasining “Notariuslar tomonidan ayrim notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi ma‘muriy reglamentlarni tasdiqlash haqida” 2020-yil 18-noyabrda 726-son qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar”ning 5-bandi tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot tahlili va yuridik ta‘minlash departamentining 2024-yil 6-sentabrda 12-15-61-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif garov munosabatlarida meros mol-mulkinging maqomini aniqlashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosda o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya hamda seminarlarda sinovdan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, 9 ta ilmiy maqola (5 ta xalqaro nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 161 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Merosni egallashning fuqarolik-huquqiy tartibga solish asoslarining ilmiy-amaliy tavsifi”** deb nomlangan birinchi bobida merosni egallash tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari, merosni egallashning huquqiy oqibatlari: ilmiy-amaliy tahlil, merosni egallashni fuqarolik-huquqiy tartibga solish qonunchilik asoslarining rivojlanish genezisi kabi masalalar tahlil qilingan.

Merosni egallashning mohiyati masalasini tadqiq qilishda muallif bunday egallash vorislik munosabatlarining yakunlovchi bosiqichi ekanligi va aynan mazkur harakat orqali meros qoldiruvchining mol-mulki merosxo'rlariga o'tishi qonuniy rasmiylashtirilishini ta'kidlaydi. Ishda keltirilishcha, Qit'a huquq oilasiga mansub davlatlarning aksariyatida “hereditas jacens” an'anasi qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra meros – bu o'ziga xos “bostirilgan tosh” bo'lib, uning tagida yashirilgan boyliklarni qo'lga kiritish uchun bir qator faol harakatlarni amalga oshirib mazkur “tosh”ni “ko'tarish” talab etiladi. Angliya va Common Lawga mansub ba'zi yurisdiksiyalarda merosga nisbatan merosxo'rlar, boshqa naf ko'ruvchilar, kreditorlar boylikdan o'z ulushlarini olish uchun umumiy navbatga turadigan ne'mat sifatida menosabat mavjud, bunda meros qoldiruvchi shaxsining davomiyligi (zudlik bilan yoki kechiktirilgan) haqida gap bo'lishi mumkin emas. Bu mamlakatlarda “merosni egallash” vakolatli ijrochi tomonidan vafot etgan shaxsning qarzlari to'liq qoplanganidan so'ng “toza” holatda benefisiarlarga o'tadi.

Tadqiqot ishida merosni egallash tushunchasiga nisbatan ko'plab olimlar va mutaxassislar (D.M.Kachmazova, V.V.Kabolov, M.J.Waal, M. Reimann, R. Zimmermann, S.A.Smirnov, Z.Sh.Shamuxammedova, L.I.Popova, J.I.Yuldashev, M.Cantacuzino)ning fikrlari tahlil etilib, merosni egallashning tushunchasi va mohiyati borasida mushohada yuritiladi. Muallifning yozishicha, merosni egallash eng avvalo merosni qabul qilishdan boshlanadi. Shu sababli ishda “merosni qabul qilish” qanday harakatni (yuridik yoki faktik) anglatishini aniqlash lozimligi muammosi quyiladi va buning uchun bir qator olimlar (X.Raxmonqulov, V.Yo.Ergashev M.V.Volgayev, O.Ye.Blinkov, Yu.K.Tolstoy, N.Yu.Rasskazova, V.I.Serebrovskiy, Ye.N.Abramova, O.Radionova)ning fikrlari o'rganilib, merosni

qabul qilish faktik harakatlar bilan boshlanib yuridik harakatlar orqali ifodalanishi lozim, degan xulosaga kelinadi.

Shuning ishda “Merosni qabul qilish” huquqining mohiyatini to‘liqroq tushunish uchun “sekundar huquqlar”ni tahlil qiladi hamda merosni qabul qilishga oid normalarni xorijiy mamlakatlar (Rossiya, Qozog‘iston, Ukraina) qonunchiligini o‘rganish asosida FKda ifodalash taklifini ilgari suradi. Bunda FKga “merosni qabul qilish” nomli 1045¹-moddani va “merosni qabul qilish muddati” nomli 1045²-moddani kiritish taklifi ishlab chiqiladi.

Dissertantning ta’kidlashicha, dunyoda meroso‘rlarning meros mol-mulkiga nisbatan huquqlarning vujudga kelishi va amalga oshirilishi hamda merosga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi ikki tizimga asoslanadi: birinchisi – merosdan voz kechish va ikkinchisi – merosni qabul qilish. Merosdan voz kechish tizimiga quyidagi davlatlarni kiritish mumkin: Fransiya (GKning 774-774-moddalari), Ispaniya (GKning 988-989-moddalari), Qirg‘iziston (GKning 1153-moddasi) va shu kabilar. Merosni qabul qilish tizimi Germaniya (GGT 1942§), Italiya (GKning 459-moddasi), RF (GKning 1152-moddasi), Ukraina (GKning 1268-moddasi) kabi davlatlarda amal qiladi. Muallifning fikricha, O‘zbekiston qonunchiligi merosdan voz kechish tizimiga asoslanadi. Bunday qat’iy xulosaga kelish uchun asos bo‘lib FKning 1145-moddasi hisoblanadi. Dissertatsiya amalga oshirilgan tahlillar asosida O‘zbekistonda merosni egallashning “merosdan voz kechish” tizimidan “merosni qabul qilish” tizimiga o‘tishni taklif qilinadi.

Muallifning qayd etishicha, amaldagi fuqarolik qonunchiligida merosni qabul qilishning uchta odatiy usuli ko‘zda tutilgan: 1) notariusga yoki mahalliy davlat hokimiyati organining vakolatli mansabdor shaxsiga tegishli shaklda xabar berish orqali merosxo‘rning faol xatti-harakati; 2) qonun bilan belgilangan sharoitlarda passiv xatti-harakatlar; 3) qonunchilikda merosxo‘rlarning ma’lum doirasiga nisbatan merosni qabul qilish prezumpsiyasi qoidasining o‘rnatilganligi.

Amaldagi qonunchilikda merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnomani berishning muhim jihati sifatida merosxo‘rlarga birgalikda yoki har bir merosxo‘rga alohida-alohida guvohnoma berish masalalari belgilanmagan. Mazkur muammoning yechimi sifatida muallif xorijiy mamlakatlar (Ukraina, Ozarbayjon Rossiya)ning qonunchilik tajribasini tahlil qilib, muallif FKning 1146-moddasi qo‘shimcha kiritish taklifini asoslantiradi.

Dissertatsiyada O‘zbekiston hududida meros masalalari hal qilinishing tarixiy-huquqiy tajribasi tahlil qilingan. Muallif bunda Dissertantning yozishicha, bugungi O‘zbekistonning huquqiy tarixida turli huquqiy tizimlar va manbalar amal qilganligi ma’lum. Albatta, hozirda O‘zbekiston Roman-German huquqiy oilasiga mansub huquqiy tizimga ega bo‘lsada, o‘tmishda urf-odat huquqi, zardushtiylik manbai bo‘lgan “Avesto”, keyinchalik islom huquqi va nihoyat qit’a huquqi ta’sirida bo‘lgan. Qadimgi turklarning qat’iy meros tartibi ko‘chmanchi xalqlarga xos urf-odatlariga borib taqilishi tarixiy-huquqiy adabiyotlar nuqtai nazaridan asoslantirilgan bo‘lsa, “Avesto”da diniy-axloqiy nuqtai nazardan meros qoidalarini nazarda tutgan. Shuning ishda Qadimgi Rindagi meros huquqi haqida ham tahlillar amalga oshirilgan. Muallif e’tibor qaratgan yana bir muhim davr bu islomda meros ilmining eng qiyin va ulug‘ ilm ekanligi hamda u barcha ilmlarning yarmiga teng ekanligi keltirilgan. Chor Rossiyaning Markaziy Osiyoga kirib kelishi bilan o‘lkada dualistik

huquqiy tartibga solish amal qilganligini, keyinchalik sovet davrida bu munosabat sobiq Ittifoq davridagi Grajdanklik kodekslari bilan, mustaqil O‘zbekistonda meros masalalari FK va notarial qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinganligi ishda ta’riflanadi. Tahlillar yakunida muallif FKga “Meross shartnomasi” nomli 69¹-bobni kiritishni taklif qiladi va uning mazmunida qanday moddalar ifodalanishi lozimligini asoslantiradi.

“Merossni egallash tartibi va uni amalga oshirishning huquqiy muammolari” – deb nomlangan tadqiqot ishining ikkinchi bobida myerosga bo‘lgan huquq va merossdan voz kechishning huquqiy tartiboti, myerosning taqsimlanishini huquqiy tartibga solinishi, myerosni muhofaza qilish va hozir bo‘lmagan merossxo‘rlarining huquqlarini ta’minlash masalalari o‘rganilgan.

Dissertatsiyada myerosdan voz kechish yuzasidan olimlar (K.B.Yaroshenko, M.A.Бычко, I.A.Komarevseva, N.V.Lebedines)ning fikrlari tahlili qilinib, shuningdek, xorijiy mamlakatlar (Rossiya, Ozarbayjon, Belrus)ning qonunchiligi o‘rganilib FKning 1147-moddasi to‘rtinchi qismini ham “merossdan voz kechish keyinchalik o‘zgartirilishi yoki qaytarib olinishi mumkin emas” tarzida belgilash taklif etiladi. FKda merossdan voz kechish foydasiga amalga oshirilmaydigan shaxslar ro‘yxati berilmagan. FKning qoidalarini tahlil qilib, biz bir shaxsga vasiyat qilingan merossdan, majburiy ulushdan, shuningdek, merossxo‘r tayinlangan taqdirda, boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo‘l qo‘yilmasligini aniqlashimiz mumkin. Bundan tashqari, meross olish huquqidan chetlatilgan shaxslar foydasiga merossni qabul qilishdan bosh tortish mumkin emasligi juda mantiqiy ko‘rinadi.

Muallifning fikricha, merossdan majburiy ulush olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning merossdan voz kechishini qonunchilik darajasida cheklash o‘rinli holatday ko‘rinadi. Biroq nima bo‘lganda ham shaxsning o‘z huquqlarini to‘sqinliksiz amalga oshirishi nuqtai nazaridan merossdan majburiy ulush olish huquqiga ega bo‘lgan shaxsning majburiy ulushdan voz kechishi ham bevosita ushbu shaxsning irodasiga bog‘liq bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, qonun bo‘yicha vorislika chaqirilgan merossxo‘r o‘z ulushini vasiyatnoma bo‘yicha vorislikka chaqirilgan shaxs foydasiga voz kechishi mumkin yoki mumkin emasligi yoxud bu holatning teskarisi bo‘yicha FKda javob mavjud emas. Buning yechimi sifatida muallif FKning 1148 va 1149-moddalarini yangi tahrirda ifodalashni taklif etadi.

Hammerossxo‘rlar merossni butunicha yoki uning bir qismiga huquq sifatida sotish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Umumiy mulkning bekor bo‘lishi (merossning taqsimlanishi) qarzlarning to‘lash majburiyati bilan birga yuz beradi. Merossxo‘rlarning birlashtiradigan bunday yondashuv (Erbengemeinschaft) qit’a huquqining german oilasiga mansubdir. Meross mustaqil ob’yekt sifatida vorislik maqsadlari uchun mavjud bo‘ladi va meross qabul qilinishi bilan merossxo‘rning mol-mulkiga qo‘shilish hamda hammerossxo‘rlar umumiy ulush mulk sifatida egalik qiladigan alohida mol-mulklar tarqalish yo‘li bilan barham topadi. Bu yondashuv esa qit’a huquqning roman oilasida amal qiladi (community of part owners). Amaldagi milliy qonunchilik bu borada aniq nuqtai nazardan tanlamaganligi ko‘zga tashlanadi. Fikrimizcha, bu o‘rinda roman oilasiga mansub yondashuv ma’qulroq ko‘rinishini ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir. Chunki, meross mol-mulki to‘liq taqsimlanishigacha bo‘lgan holatda umumiy ulushli mulk sifatida ushbu ob’yektga nisbatan huquqlarni amalga oshirishi o‘rinli bo‘lardi. Amalga oshirilgan tahlillar

asosida dissertatsiyada “Merosxo‘rlarning umumiy mulki” nomli 1149¹-moddani kiritish taklif qilinadi. Shuningdek, ishda FKga “Merosxo‘rlar o‘rtasidagi kelishuv bo‘yicha merosni taqsimlash” nomli 1149²-moddani kiritish lozimligi asoslantiriladi. Bundan tashqari, muallif Oliy sud plenumining 2011-yil 20-iyuldagi “Sudlar tomonidan meros huquqiga oid qonunchilikning qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi 5-son qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartish kiritish taklifi ham ilgari suriladi.

Qonunchilik merosni muhofaza qilish (qonun osti hujjatlarida merosni qo‘riqlash)ga oid ikki xildagi choralarni, ya’ni merosni saqlash, qo‘riqlash, muhofaza qilishga qaratilgan choralar hamda merosni boshqarishga oid choralarni belgilaydi. amaldagi FK merosni muhofaza qilish borasidagi qoidalar o‘rniga “hozir bo‘lmagan merosxo‘rlarning huquqlari”ni himoya qilishga oid normalarni nazarda tutadi. Bu esa o‘z navbatida meros mol-mulkini muhofaza qilish va boshqarishga oid huquqiy tartibga solishda o‘ziga xos bo‘shliqni yuzaga keltiradi. Muallifning fikricha, mazkur holatlardan kelib chiqib FKga ham merosni muhofaza qilishga oid tegishli normalarni belgilash maqsadga muvofiqdir bo‘lar edi. Qolaversa, dissertatsiyada FKga “Merosni taqsimlashda voyaga yetmagan, muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan shaxslarning qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish” nomli 1151¹-moddani kiritish taklifi asoslantiriladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi – **“Merosni egallash bo‘yicha xorijiy tajriba va fuqrolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda myerosni egallash bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasining qiyosiy-huquqiy tahlili, raqamli huquqlarga nisbatan merosni egallashning ilmiy-nazariy tahlili, myeros ulushlarining ortishi va meros hisobidan qiladigan xarajatlar (kreditorlarning meros qoldiruvchining qarzlarini undirib olishi) bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimlarining tahlili amalga oshirilgan.

Meros munosabatlarini tartibga solishning asosiy farqlari shundaki, qit‘a huquqida va umumiy huquq tizimi mamlakatlarida meros huquqi instituti turli xildagi jihatlariga ega.

Jahon amaliyotida, ilgari qabul qilingan terminologiyaga ko‘ra, meros qonunchiligi roman tarmog‘iga, shuningdek, german tarmog‘iga bo‘linadi. Roman huquq tizimining asosini boshqa bir qator Yevropa davlatlari, xususan, Italiya, Belgiya, shuningdek, boshqa bir qator Yevropa qit‘asida joylashmagan davlatlar qonunchiligining shakllanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan Fransiya qonunchiligi tashkil etadi. Milliy meros huquqi singari, aksariyat xorijiy mamlakatlarning meros huquqi shartnoma erkinligi va oila manfaatlarini, shuningdek majburiy merosxo‘rlarni himoya qilish prinsipiga asoslanadi. Barcha xorijiy mamlakatlarda merosning ikkita tartibi qo‘llaniladi: qonun va vasiyatnoma bo‘yicha. Biroq, kontinental Yevropa mamlakatlarida va umumiy huquq mamlakatlarida qonun bo‘yicha ham, vasiyatnoma bo‘yicha ham meros tartibida sezilarli farqlar mavjud.

Muallifning fikricha, raqamli huquqlar sivilistik doktrinada mulkiy huquqlarning bir turi, jisimsiz ashyo, talab qilish huquq va shu kabi ko‘plab ifoda va nomlar bilan atalmoqda. Raqamli aktiv meros tarkibiga kiritilishi lozim, chunki u vorislik huquqiy munosabatlar ob‘yektining asosiy zarur xususiyatlariga mos keladi (birinchi navbatda, bu haqda iqtisodiy munosabatlar paydo bo‘ladi). Biroq, vorislik huquqining asosiy tamoyillari va qoidalarini ushbu vaziyatdan, raqamli huquqlarga nisbatan amalga oshirishning mushkulligini ham qayd etish lozim. Bu yerda

prosessual masalalar va munosabatlar ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish haqida gapirish mumkin. Chet elda raqamli huquqlarning meros munosabatalari ob'yekti bo'lish masalasida ba'zi qonunchilik yechimlarini taklif qilishadi. Ta'kidlanishicha, elektron vasiyatnoma institutini joriy etish va maxfiy vasiyatnoma rejimini kengaytirish ilmiy va qonun ijodkorligi sohasidagi istiqbolli yo'nalishlari hisoblanadi, chunki foydalanuvchi virtual makonda o'z aktivlarining taqdirini mustaqil ravishda hal qilishi kerak.

Meros ulushlarining ortishi vorislik huquqida an'anviy mexanizmlar biri (jus adcrecendi) sifatida e'tirof etiladi. FK vorislik huquqiy munosabatlar ishtirokchilarini meros qoldiruvchining hayoti davomida bo'lgan qarzlari mavjudligini va bunday qarzlarni talab qilish huquqiga ega bo'lgan barcha kreditorlarni aniqlashga majburlamaydi. Fuqarolik huquqi doktrinasi huquqiy vorisning vazifasi meros qoldiruvchining kreditorlarini merosning ochilishi to'g'risida, agar huquqiy voris bunday kreditorlarning mavjudligi to'g'risida bilsa va ularning manzillaridan xabardor bo'lsa xabardor qilish ekanligini nazarda tutadi. Biroq, qonunchilik merosxo'rning ushbu majburiyatni bajarmaganligi uchun javobgarligini belgilamaydi.

O'zbekiston fuqarolik qonunchiligi boshqa ko'plab huquqiy tizimlar (Fransiya, Shveysariya, Belgiya, Italiya, Ispaniya, Germani)dagi kabi merosxo'rlar merosni u ochilgan paytda, faktik qabul qilish paytidan qat'iy nazarda egallaydi (FKning 1145-moddasi). Masalan, common law oilasiga mansub davlatlarda merosxo'rlar meros mol-mulkinging to'g'ridan-to'g'ri topshirish mavjud emas, bu mamlakatlarda merosga nisbatan huquq sud nazorati ostida merosxo'rga o'tadi.

XULOSA

Merosni egallashni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. O'zbekistonda merosni egallashning merosdan voz kechish tizimidan merosni qabul qilish tizimiga o'tishni taklif qilish mumkin. Merosni qabul qilish tizimiga o'tish ayni paytda, merosxo'rlarning barchasi manfaatini ifoda etish bilan birga, meros mol-mulkinging yuridik taqdirini uzoq muddat noaniq qolishining oldini olish bilan birga, kreditorlar huquqlarini himoya qilish hamda muhim o'rin tutadi. Shu sababli merosni egallashga nisbatan fransuz (merosdan voz kechish) tizimi o'rniga, german (merosni qabul qilish) tizimini qabul qilish amaliy va huquqiy jihatdan aniqroq va foydaliroq bo'lardi.

2. Fikrimizcha, "merosni egallash" meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan mol-mulkning merosxo'rlarga o'tishiga oid faktik va yuridik harakatlar yig'indisi sanaladi. Mazkur harakatlar muayyan muddatlarga rioya etishni, tegishli hujjatlar rasmiylashtirilishi hamda meros qoldiruvchi mol-mulkinging taqsimotini talab qilishi ham mumkin. Bundan tashqari, merosni egallash merosxo'rga muayyan mulkiy manfaatlik keltirishi bilan birga, uning zimmasiga ayrim majburiyatlar yuklatilishisha ham olib keladiki, bu o'z navbatida merosni egallash bilan birga undan voz kechish masalasini ham kun tartibiga chiqarishi mumkin.

3. Merosni taqsimlash to'g'risidagi bitim – bu ikki yoki undan ortiq merosxo'rlar o'rtasida merosning umumiy ulushli egaligini uning elementlarini (ba'zi narsalarga bo'lgan huquqlar va majburiyatlarni) merosxo'rlar o'rtasida taqsimlash orqali tugatish to'g'risidagi bitim bo'lib, uning asosida ularning har biri shartnomada belgilangan aniq narsalarga egalik qiladi, shuningdek, meros bo'yicha boshqa huquq va majburiyatlar sub'yektiga aylanadi. Ushbu shartnoma ko'p tomonlama, kauzal, konsensualdir. Uning maqsadi merosxo'rlarning umumiy mulkini bekor qilish orqali (meros) mol-mulkni aniq merosxo'ring mulkka aylantirishdir.

4. Hozirda ishlab chiqilgan FKning yangi tahriri loyihasida er-xotinning birgalikdagi vasiyatnomasiga oid normalar ishlab chiqilgan bo'lsada, meros shartnomasiga oid normalar loyihada o'z ifodasini topmagan. Mazkur vaziyatda FKga “Meros shartnomasi” nomli 69¹-bobni kiritish lozim bo'ladi. Bizningcha ushbu bobda “meros shartnomasining tushunchasi”, “meros shartnomasining taraflari”, “meros shartnomasining shakli”, “meros shartnomasida egallovchining majburiyatlari”, “er-xotin ishtirokidagi meros shartnomasining xususiyatlari”, “meros shartnomasi bajarilishini ta'minlash”, “meros shartnomasini bekor bo'lishi” kabi moddalar va qoidalar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

5. Fikrimizcha, merosxo'ring o'z ulushidan qonun bo'yicha vorislikka chaqirilganlardan birovining foydasiga merosdan voz kechishi o'rinlidir. Chunki, qonun bo'yicha vorislik navbatlari merosxo'r qoldiruvchi qarindoshlarining yaqinligi darajasiga qarab belgilanadi va shu sababli ham merosxo'ring merosdan voz kechishi va faqat vorislikka chaqirilgan boshqa merosxo'r foydasigagina bo'lishi mumkin. Uning vorislikka chaqirilmagan boshqa merosxo'rlar foydasiga merosdan voz kechishi qabul qilinmasligi lozim.

6. “Merosdan voz kechishni bekor qilinmasligi” haqidagi qoida FKda bir qadar noto'g'ri ifodalanganligini ko'rish mumkin. Gap shundaki, merosdan voz kechish haqidagi arizani topshirilganidan so'ng ushbu ariza “qaytarib olinishi yoki o'zgartirilishi” mumkin emas tarzida bo'lishi lozim. Zero bekor qilish faqat sud tartibida amalga oshiriladi va buning uchun yetarli asoslar mavjud bo'lishi lozim. Bunday asoslar sifatida arizani noto'g'ri ifodalanganligi, rasmiylashtirishdagi xatoliklar yoki boshqa masalalar bo'lishi mumkin. FKning 1147-moddasi to'rtinchi qismidagi qoida esa merosxo'ring fuqarolik huquqlarini amalga oshirishga o'ziga xos to'siqlik yaratmoqda. Fikrimizcha, mazkur jihatlarni inobatga olib FKning 1147-moddasi to'rtinchi qismini ham “merosdan voz kechish keyinchalik o'zgartirilishi yoki qaytarib olinishi mumkin emas” tarzida belgilash maqsadga muvofiqdir.

7. Fikrimizcha, merosdan majburiy ulush olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning merosdan voz kechishini qonunchilik darajasida cheklash o'rinli holatday ko'rinadi. Biroq nima bo'lganda ham shaxsning o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishi nuqtai nazaridan merosdan majburiy ulush olish huquqiga ega bo'lgan shaxsning majburiy ulushdan voz kechishi ham bevosita ushbu shaxsning irodasiga bog'liq bo'lishi lozim. Agar ushbu shaxsning o'zi merosdan voz kechish istagida bo'lsa, unga to'sqinlik qilimasligi lozim. Shunga qaramasdan, muomalaga layoqatsizlar, muomala layoqati cheklangan yoki voyaga yetmaganlarning merosdagi ulushidan voz kechishi bevosita ularning qonuniy

vakillari tomonidan vasiylik va homiylik organining roziligi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

8. Merosxo‘rlarning ko‘pchilik bo‘lishi merosga nisbatan umumiy ulushli mulk yuzaga kelishini anglatadi. Hammerosxo‘rlar merosni butunicha yoki uning bir qismiga huquq sifatid sotish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Umumiy mulkning bekor bo‘lishi (merosning taqsimlanishi) qarzlarning to‘lash majburiyati bilan birga yuz beradi. Merosxo‘rlarning birlashtiradigan bunday yondashuv (Erbengemeinschaft) qit’a huquqining german oilasiga mansubdir. Meros mustaqil ob’jekt sifatida vorislik maqsadlari uchun mavjud bo‘ladi va meros qabul qilinishi bilan merosxo‘rning mol-mulkiga qo‘shilish hamda hammerosxo‘rlar umumiy ulush mulk sifatida egalik qiladigan alohida mol-mulklar tarqalish yo‘li bilan barham topadi. Bu yondashuv esa qit’a huquqning roman oilasida amal qiladi (community of part owners). Amaldagi milliy qonunchilik bu borada aniq nuqtai nazardan tanlamaganligi ko‘zga tashlanadi. Fikrimizcha, bu o‘rinda roman oilasiga mansub yondashuv ma’qulroq ko‘rinishini ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir. Chunki, meros mol-mulki to‘liq taqsimlanishigacha bo‘lgan holatda umumiy ulushli mulk sifatida ushbu ob’jektga nisbatan huquqlarni amalga oshirishi o‘rinli bo‘lardi.

9. Merosdan voz kechish tizimidan merosni qabul qilish tizimiga o‘tilishi o‘z-o‘zida milliy qonunchilikda mavjud bo‘lgan hozir bo‘lmagan merosxo‘rlarning huquqlariga oid qoidalarni istisno etishni taqozo etadi. Chunki, merosni qabul qilish muddatini belgilanishi hamda bu muddat o‘tkazib yuborilishining oqibatlariga oid qoidalarning kiritilishi o‘z-o‘zidan hozir bo‘lmagan merosxo‘rlarga oid qoidalarga ehtiyojni qoldirmaydi. Shunday ekan, milliy fuqarolik huquqi doktrinasida “hozir bo‘lmagan merosxo‘rlarning huquqlari”ga oid qoidalardan voz kechish, buning o‘rniga merosni qabul qilish muddati va uning oqibatlari yondashuvni qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

10. Ilmiy doktrinial nuqtai nazardan hal etilishi lozim bo‘lgan yana bir masala meros transmissiyasi va merosni muhofaza qilish va boshqarishga oid qoidalar FKning strukturasiidagi o‘rnini belgilash hamda merosni muhofaza qilish institutini tushunish va talqin etish hisoblanadi. Gap shundaki meros transmissiyasi (1140¹-modda) va merosni muhofaza qilish (1144-modda) merosni egallashga mansub novellalar hisoblanadi va ular FKning qonun bo‘yicha vorislikka bag‘ishlangan 68-bobida emas, balki merosni egallashga bag‘ishlangan 69¹-moddasi ifodalanishi zarur.

11. Fikrimizcha, raqamli huquqlar – bu egasiga muayyan uchinchi shaxslarga nisbatan mulkiy talabni qo‘yish imkonini beradigan va tegishli raqamli ifodalarda namoyon bo‘ladigan hamda egasi uchun mutlaq va nisbiy huquqlarni taqdim etadigan, jisimiy ko‘rinish hosil qilmaydigan turli matematik va arifmetik kombinatsiyalar yig‘indisidan hosil bo‘lgan ma’lumotlardir. Aynan mana shunday murakkablik ushbu huquqlarning fuqarolik muomalasidagi, xususan, vorislik munosabatlarining o‘rni va maqomini belgilash, uni tartibga solishning qiyinligi ko‘rsatadi hamda muayyan ijtimoiy, siyosiy va huquqiy yechim ishlab chiqilishini talab qiladi.

12. Fikrimizcha, raqamli huquqlarga nisbatan vorislikni qo‘llashga nisbatan quyidagi qonunchilik yechimlari taklif qilish mumkin, biroq ularni tanlash raqamli iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosatiga bog‘liqdir: “raqamli” aktivlarni meros qilib

olishni to'liq taqiqni o'rnatish; raqamli aktivlar uchun meros munosabatlarini alohida huquqiy tartibga solishni yaratish; meros tarkibiga "raqamli ob'yekt"larni agar ularning muomalasi imkon bersa kiritish; "raqamli ob'yektlar"ning meros xususiyatlarini aniq belgilash. Shu bilan birga, O'zbekistonda "raqamli" meros munosabatlarini huquqiy tartibga solish faqat aralash usulga, shu jumladan an'anaviy va texnologik usullarning kombinatsiyasiga asoslanishi mumkin. Bu usul "raqamli ob'yekt" ni faqat uni muomalaga kiritish mumkin bo'lgan taqdirdagina meros tarkibiga kiritish faktini taxmin qilish bilan eng ko'p bog'liqdir.

II. Qonunchilikni takomillashtirishga oid takliflar:

1. FKga "Merosni qabul qilib olish" nomli 1045¹-moddani kiritish va uni quyidagi mazmunda belgilash lozim:

Merosxo'r merosni qo'lga kiritishi uchun uni qabul qilib olishi kerak.

Merosni qabul qilib olish merosxo'r tomonidan meros ochilgan joydagi notariusga merosni qabul qilib olish yoki amalda merosni egallashga va uni boshqarishga kirishish haqidagi ariza taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

